

DIALOGIK DISKURSDA KONTEKSTUAL ANTONIMIYA VA ANTONIMIK TARJIMANING PRAGMATIK JIHATLARI (O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)

Saydjanova Komila Davronovna

“Farmasevtika va kimyo” kafedrası o‘qituvchisi, Tibbiyot fakulteti, Alfraganus universiteti,
orcid: 0000-0003-0142-2136

e-mail: ksaydjanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22683643>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 9-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 10-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Ushbu tezisdagi dialogik diskursda kontekstual antonimiya, enantiosemiya va antonimik tarjima hodisalari o‘zbek va fransuz tillari materiali asosida pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Til tizimida zid bo‘lmagan birliklarning muloqot kontekstida qarama-qarshi ma’no kasb etishi, bir leksemaning zid ma’nolarni ifodalashi hamda tarjimada zidlik munosabatining o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar:

kontekstual antonimiya, enantiosemiya, antonimik tarjima, dialogik diskurs, pragmatika, o‘zbek tili, fransuz tili.

Kirish

Antonimlar – tilda qarama-qarshi ma’noni anglatuvchi so‘zlar bo‘lib, ular olamdagi narsa-hodisa va belgi-xususiyatlarning o‘zaro zidligini aks ettiradi. Dunyoning rang-barangligi va juftlik prinsipiga asoslangani antonimiyaning tildagi tabiiy asosini tashkil etadi. Antonimlar nafaqat og‘zaki nutqda, balki badiiy matnda ham muhim ahamiyat kasb etib, bir-birining ma’nosini to‘ldiradi hamda fikrni aniq va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tildagi barcha so‘zlarning antonimi mavjud emas (masalan, *nok, qalam, daftar*); antonimiya, asosan, mavhum ma’noli va belgi bildiruvchi so‘zlarda faol. Kelib chiqishiga ko‘ra antonimlar ikki turga ajratiladi: asliy (leksik) antonimlar til tizimida tabiiy mavjud (*oq – qora, yer – osmon*), yasama antonimlar esa affikslar yordamida hosil bo‘ladi (*layoqatli – layoqatsiz, to‘g‘ri – noto‘g‘ri*).

Antonimiyaning bu boy tabiati uni sof leksik-semantik doiradan chiqarib, nutqiy-pragmatik jihatdan o‘rganishni taqozo etadi. Zero, dialogik diskursda antonim so‘z so‘zlovchining niyati, bahomunosabati va kommunikativ strategiyasini ham ifodalaydi.

Asosiy qism

O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurov hamda B.Isabekov antonimlarni belgilash mezonini sifatida “ mantiqiy markaz” prinsipini asoslaganlar: ikki ma’no o‘rtasida oraliq tushuncha (masalan, qish va yoz orasida bahor) mavjud bo‘lsa, ular antonim deb qaraladi. Ammo bu mezon til tizimidagi turg‘un antonimlarga taalluqli bo‘lib, muloqotda yuzaga keladigan dinamik zidliklarni to‘liq qamramaydi. Shu bois pragmatik yondashuv – H.P.Grays, G.Leech, D.Sperber va D.Uilson hamda fransuz maktabi (O.Dükro, J.Möshler) – antonimlarni nutqiy voqelanishda, kontekst

va soʻzlovchi niyati bilan bogʻliq holda oʻrganishni taklif etadi. Ushbu tezis aynan shu dinamik – kontekstga bogʻliq – hodisalarni tahlil qiladi.

Dialogda kontekstual antonimiya soʻzlovchining pragmatik niyatini – qiyoslash, baholash yoki inkor – ochib berishga xizmat qiladi. Bunday antonimlar oldindan lugʻatda qayd etilmagani uchun ularning maʼnosi faqat muloqot kontekstidan anglashiladi. Masalan, quyidagi dialogda: – *U dushmanmi?* – *Yoʻq, u bizning odam – dushman va bizning odam* til tizimida antonim boʻlmasa-da, kontekstda zidlanadi. Fransuzcha *“Il n’est pas un ami, c’est un simple collègue”* jumlasida ham *ami* va *collègue* kontekstual antonimlar sifatida qoʻllanadi. Bu esa antonimiyaning muloqotda yaratiladigan, dinamik hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Enantiosemiya (yun. *enantios* – qarama-qarshi + *sema* – belgi) – bitta leksemaning nutqiy muhit talabiga koʻra zid maʼnolarni ifodalashidir. Oʻzbek tilidagi *chiqmoq* feʼli asosan “ichkaridan tashqariga harakatlanish”ni bildiradi, ammo transport kontekstida “tashqaridan ichkariga harakatlanish”ni (*avtobusga chiqmoq*) anglatadi. Xuddi shunday, *ofat* soʻzi ham “falokat”, ham “goʻzal, maftunkor” maʼnolarini ifodalaydi. Fransuz tilida *hôte* soʻzi ham “mezbon”, ham “mehmon” maʼnosini bergani kabi, *apprendre* feʼli “oʻrganmoq” va “oʻrgatmoq/xabar bermoq” maʼnolarida qoʻllanadi. Dialogik nutqda enantiosemik birlikning aniq maʼnosi faqat kontekst va soʻzlovchining kommunikativ maqsadidan kelib chiqib belgilanadi; noaniqlik esa baʼzan ataylab, soʻz oʻyini yoki ironiya yaratish uchun ishlatiladi. Bu enantiosemiyaning pragmatik quvvatini koʻrsatadi.

Masalan, oʻzbekcha *“qarab tur!”* iborasi kontekstga qarab ham “kutib tur”, ham “ehtiyot boʻl” (tahdid) maʼnosini beradi; bunday ikki maʼnolilik suhbatda kutilmagan burilish yoki kulgili vaziyat hosil qilishi mumkin. Shu bois enantiosemiya soʻzlovchiga bir shakl orqali bir necha pragmatik maqsadni – taʼkid, ogohlantirish, kinoya – ifodalash imkonini beradi va dialogik diskursning taʼsirchan vositalaridan biriga aylanadi.

Antonimik tarjima

Antonimik tarjima – tarjima jarayonida keng qoʻllaniladigan kompleks leksik-grammatik almashtiruv boʻlib, unda tasdiq konstruksiya inkor konstruksiyaga (yoki aksincha) oʻzgartiriladi, asl matndagi soʻz esa tarjima tilida uning antonimi bilan almashtiriladi. Fransuz tilshunosligida bu hodisa argumentatsiya va polifoniya nazariyasi (O.Dükro) doirasida izohlanadi. Masalan, inglizcha *“take it easy”* iborasi oʻzbekchaga *“tashvishlanaverma”* (inkor orqali) oʻgiriladi; *“a murderer is only safe when he is in prison”* jumlasidagi *safe* (“xavfsiz”) kontekstga koʻra *“xavfli emas”* tarzida beriladi. Fransuzcha *“Ce n’est pas mal”* iborasi oʻzbekchaga *“yaxshi”* deb tarjima qilinadi – bu yerda inkor + antonim tasdiq maʼnoni beradi. Xuddi shunday, fransuzcha *“N’oubliez pas!”* (“unutma!”) oʻzbekchaga koʻpincha *“yodingda tut!”* (tasdiq + antonim) shaklida oʻgiriladi. Antonimik tarjimaga ehtiyoj asliyat va tarjima tillarining xususiyati, kontekst talabi hamda tarjima tilidagi anʼanaviy norma bilan bogʻliq. Dialogik nutqni tarjima qilishda bu usul jonli ohang va emotsionallikni saqlashga xizmat qiladi; ayniqsa hissiy boʻyoqdor jumalarni oʻgʻirishda antonimik almashtiruv matnning taʼsirchanligini oshiradi.

Dialogik nutqda antonimiya polisemantik soʻzlar bilan chambarchas bogʻliq. Koʻp maʼnoli leksema oʻzining bosh maʼnosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila (koʻchma) maʼnosi bilan esa boshqa juftlikka kirishishi mumkin. Oʻzbek tilida *“achchiq qalampir”* va *“shirin olma”* birikmalarida *achchiq* va *shirin* bosh maʼnoda antonim boʻlsa, *“achchiq gap”* va *“shirin gap”* da ular koʻchma maʼnoda zidlanadi. Fransuz tilida ham *“eau douce”* (chuchuk suv) va *“parole douce”* (muloyim soʻz) birikmalarida *douce* turli antonimik juftliklarga kiradi. Dialogda soʻzlovchi aynan qaysi maʼno koʻzda tutilayotganini kontekst orqali ochib beradi. Bu hodisa antonimiyaning muloqotda statik emas, balki maʼno tanlashga bogʻliq dinamik jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi va tinglovchidan kontekstni toʻgʻri idrok etishni talab qiladi.

Kontekstual antonimiya va enantiosemiya dialogda koʻpincha ironiya yaratish uchun ishlatiladi. Ironik bayonotda soʻzlovchi asl niyatiga qarama-qarshi soʻzni qoʻllaydi: masalan, xato qilgan kishiga *“Qoyil, juda zoʻr ish qilding!”* deyilganda *zoʻr* soʻzi kontekstda oʻz antonimi – *“yomon”* maʼnosini ifodalaydi. Fransuz tilida ham *“C’est du beau travail!”* iborasi kinoya ohangida qarama-qarshi maʼnoda qoʻllanadi. Bunday holatlarda zidlik soʻzlar oʻrtasida emas, soʻzning zohiriy va asl maʼnosi oʻrtasida yuzaga keladi (antifraza). D.Sperber va D.Uilsonning relevantlik nazariyasiga koʻra, tinglovchi bunday bayonotning haqiqiy maʼnosini kontekst va umumiy bilim asosida tiklaydi. Shu bois

dialogik nutqda antonimik ironiya soʻzlovchining munosabatini bilvosita, taʼsirchan tarzda yetkazishning muhim pragmatik vositasidir.

Xulosa

Dialogik diskursda antonimiya statik leksik munosabat doirasidan chiqib, dinamik va kontekstga bogʻliq hodisa sifatida namoyon boʻladi. Kontekstual antonimiya til tizimida zid boʻlmagan birliklarni muloqotda qarama-qarshi qiladi; enantiosemiya bir leksemani zid maʼnolar tashuvchisiga aylantiradi; antonimik tarjima esa zidlik munosabatini bir tildan ikkinchisiga oʻtishda qayta shakllantiradi. Uchala hodisa ham soʻzlovchining pragmatik niyatiga xizmat qiladi va muloqotning taʼsirchanligini oshiradi. Oʻzbek va fransuz tillari qiyosi shuni koʻrsatadiki, bu hodisalar har ikki tilda mavjud boʻlsa-da, ularning voqelanishi milliy mentalitet, nutq madaniyati va tillarning tipologik qurilishiga bogʻliq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980.
2. Isabekov B. Leksicheskaya antonimiya v sovremennom uzbekskom yazyke: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1973.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Gʻofurov I., Moʻminov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2012.
7. Ducrot O. Le dire et le dit. – Paris: Minuit, 1984.
8. Moeschler J., Reboul A. Dictionnaire encyclopédique de pragmatique. – Paris: Seuil, 1994.
9. Kerbrat-Orecchioni C. Les interactions verbales. – Paris: Armand Colin, 1990.
10. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975.
11. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
12. Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.